

**DINIY EKSTREMIZM VA UNING IJTIMOIY BARQARORLIKGA  
TA'SIRI VA QISQACHA YECHIMLARI.**

*Jumaboyev Adhamjon Tursinalyevich  
Diplomatiya university talabasi*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada 21-asrning global muammolaridan biri bo‘lgan diniy ekstremizm va terrorizm muammosi hamda unga qarshi kurash masalalari yoritilgan. Ushbu illatlar jamiyat va davlatga yetkazadigan zararini ochib berib, xalqaro hamjamiyat va O‘zbekiston tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qiladi. Ayniqsa, yoshlarning ekstremistik oqimlarga aldanib qolishining oldini olish uchun ta’lim tizimida diniy va mafkuraviy savodxonlikni oshirish, ularni ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tahlil qilishga o‘rgatish zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, diniy erkinlik va yoshlarning masjidlarga kirish imkoniyati bo‘yicha mavjud muammolar ham ko‘tarilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston siyosati, Diniy ekstremizm, terrorizm, radikalizm, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi, diniy savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim tizimi, xalqaro tashkilotlar.

**ABSTRACT**

The article describes the problem of religious extremism and terrorism, which is one of the global problems of the 21st century, and the issues of combating it. It reveals the harm these diseases cause to the society and the state, and analyzes the measures taken by the international community and Uzbekistan. In particular, in order to prevent young people from being deceived by extremist currents, it is emphasized that it is necessary to increase religious and ideological literacy in the educational system, to teach them to analyze information on social networks. Also, existing problems regarding religious freedom and access of young people to mosques are raised, and proposals are made to eliminate them.

**Keywords:** Politics of Uzbekistan, Religious extremism, terrorism, radicalism, youth education, information security, religious literacy, social networks, education system, international organizations.

Dunyo mamalakatlari va O‘zbekistonda ham dolzarbliji oshib borayotgan diniy ekstremizm, va terrorizm muamosiga qarshi butun jahon va O‘zbekiston ham qarshi kurashmoqda. Dunyo hamjamiatiga Islom dinini qoralayotgan bu masalalarni to’la to’kis tushinmaydigan insonlarda Islom diniga qarshi nafrat uyg’onishi bu juda achinarli holdi.

O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyayev BMT bosh asambleyasining 72- sessiyasidagi nutqida " Biz butun jahon ham jamiyatiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim, vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadiryatlarimizni mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz" deb ta'kidladi.

Bu bayonot diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonning pozitsiyasini aniq ifodalaydi.

Terrorizm va ekstremizm insoniyat bilan birga 21-asrga kirib kelgan eng havfli ijtimoiy illatlarda biri hisoblanadi. Terrorizm – jamiyatda tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi, keng qatlam orasida qo'rquv paydo qiluvchi siyosiy kurashdir. Dinga, Davlatga, jamiyatga to'gri kelmaydigan ayrim qo'shtirnoq ichidagi dindorlarning qonun qoidalari orqali o'z mafkurasini ilgari surishlari juda achinarli. Bu illatlar bag'rikenglik va hamfikrlikni rad etib, mamlakat taraqqiyotiga raxna soladi.

"Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", -degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday taxditlar nafaqat ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga ziyon keltiradi. Jamiyatga psixologik bosim o'tkazib zo'ravonlik va agressivlik aqidasini yoyadilar. Qo'rquv bu psixologik urushning asosi xisoblanadi. Misol uchun bomba ma'lum bir hududga zarar yetkazsa qo'rquv bilan butun bir millat yo'q bo'lib ketishini mumkin.

Ekspertlarning xulosalariga ko'ra so'ngi 10 yil ichida diniy ekstremizm va terrorizm tufayli dunyo iqtisodiyoti 583 trillion AQSH dollar miqdorida zarar ko'rgan bo'lsa, 15 yil ichida 100 mingdan ziyod begunoh insonlar terorchilik hujumlari oqibatida halok bo'lган. Faqatgina 2019-yilning o'zida dunyo bo'yicha zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizmning umumiyligi salbiy global ta'siri 14,1 trillion AQSH dollar yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 11,2 foizini, iqtisodiy zarar – 33,19 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan.

Shu sababdan ham, jahon hamjamiyatining ekstremistik oqimlarning globallashuvini bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlari borgan sari kuchayib bormoqda. BMT, YXHT, SHHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ushbu sohada yuzdan ortiq qaror, shartnoma va harakat rejalari qabul qilindi. Xususan BMTning global aksilterror strategiyasi va tajovuzkor ekstremizning oldini olish bo'yicha harakat rejasi, YXHT ning terrorizmga olib keluvchi ekstremizm va radikallashuvning oldini olish, va unga qarshi kurashish deklaratsiyasi, Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya, Terorizm, separatism va ekstremizmga qarshI kurashish bo'yicha konsepsiysi, shuningdek, SHHTga a'zo davlatlarning ushbu harakatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik dasturi, MDHga a'zo davlatlarning terrorizm va ekstremizmning tajovuzkor ko'rinishlariga qarshi kurash borasidagi hamkorlik dasturi va boshqa hujjalalar qabul qilingan. Qayd etish lozimki, radikallashuv, terrizm g'oyalarining tarqalishi jamiyatning tinchligi va

osoyishtaligiga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatar va muamolardan biri hisoblanadi. Radikalizm – terrorizmga olib boruvchi so'ngi bosqichdir.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlar soxta g'oyalarni asl diniy qadiryatlar sifatida talqin qilish orqaliy inson huquqi va erkinliklarini oyoq osti qilish va diniy, madaniy-marifiy merosga jiddiy zarar yetkazib, dinlar orasiga nifoq solib ularning munosabatiga putur yetkazishga harakat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda dindan “Yumshoq kuch” sifatida foydalanib siyosiy, madaniy va gumanitar ta'sir doirasini kengaytirishlar kuzatilmoqda. Din dunyodagi insonlarni bir g'oya ostiga yeg'a oladigan katta kuchdir. Dindan siyosiy o'yin sifatida foydalanish kelajagda salbiy oqibatlarga olib kelishi turgan gap.

Noqonuniy tarzda diniy ta'lim berish holati o'sib bormoqda va bu Markaziy Osiyo mamalakatlaridagi, jumladan, O'zbekistondagi diniy vaziyatga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Jessika Strenga izohiga ko'ra “Terrorizmning boshqa urush-janjanllardan farqlab olish mumkin bo'lgan ikki xarakteri mavjud. Birinchidan terror tinch aholiga qaratiladi. Bu uni urushlardagi kurashdan farqlab turadi. Ikkinchidan terrorchilar oliy maqsadi yo'lidan qo'rqtishdan foydalaniladi. Bu odatda mo'ljallangan aholi orasida qo'rquv uyg'otish bilan bog'liq.” Barcha terroristik aktlar zo'ravonlikdan yoki zo'ravonlik orqaliy tahdid qilishdan iboratdir.

Jadal rivojlanayotgan davrda O'zbekiston davlati bu oqimlarga qarshi kurashishda yoshlar ongini kerakli narsalar bilan band qila olish, ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishni o'rgatilishi lozim. Internet tarmoqlarida ko'rgan har bir ma'lumotlarini analiz, filtr qilib ishlatishni o'rgatishimiz lozim. Dunyoda va shu bilan birga O'zbekistonda ham rivojlanish jadal suratda davom etayotga paytda yoshlarimizni ishtimoiy tarmoqlarda uzishning ilojin yo'q. Biz hozir habarlarni filtlashni o'rgatishimiz lozim. Bunday tahlikaliy zamonda Yashar ekanmiz yoshlarni kitoblar, tarixiy yodgorliklar, siyosiy, ilmiy konferensiyalarga jalb qilish ijtimoiy tarmoqlardan shu orqaliy uzish lozim. Unimli foydalanish yaxshi lekin keraksiz saytlarga kirish har xil oqimlarga aralashib qolish bu juda yomon. Ba'zi qo'shni davlatlarda blogerlikni rivojlantirish uchun ishlar olib bormoqda. Bu o'sib kelayotga yoshlarning dangasalikga, dunyoviy ilmlarga qiziqmasligi, davlati kelajagiga o'z hisasini qo'shish kabi fikrlar yo'q bolishiga olib keladi. Bu kasbdan ham yaxshi yo'llar bilan foydalanish yaxshi lekin bunday qilmayotganlar ham talaygina. Yoshlar Ekstremizm va Terrorizm g'oyalariga o'ralashib qolmasligi uchun o'sish davrining ma'lum bir qismida, yoshlar uchun diniy va mafkuraviy bilimlarni o'rgatilishi, qanday ishlar to'g'ri qaysi ishlar noto'g'ri ekanini tushuntirish ong ostiga chuqr singdirish kerak. Chunkiy O'sish yoshidagi qiziqon bola ilmiy va diniy qiziqishlariga o'z kasbining yetuk mutaxasislari yordamida o'rgatilmasa bu salbiy oqibatlarga olib keladi. 18 yoshda ilmiy salohiyati rivojlanga nimani ko'rsa eshitsa o'ziga oladigan holatida ijtimoiy tarmoqda kim maruza qilayotganini bilmaydigan, kerak bo'lsa ba'zi

hollarda tushunmay eshitadi va tanishlariga jo'natadi bu esa juda yomon. Maktabni 10- 11- sinf paytida shu sohani qamrab turuvchi ta'lim shaklini darsliklar orasiga qo'shish kerak. 18 talab keraksiz sohalarni o'rgatishni keragi yo'q. Hozirgi kunda Terrorizm va Ekstremizga 18 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlar qo'shilayotgani achinarli. Ayni vatani xalqi millati uchun hizmat qiladiga, o'qib izlanadigan yoshda qandaydir radikal g'oyalarga aldanadi. Uning sabalarini eng asosiysi sifatida bu oqimlar tomonidan yoshlar uchun aldov yo'llari bilan taklif qilinga katta miqdordagi pul mablag'lariiga ishonishi hamda diniy ilmsizlik qilayotgani oqibatida teroristik va ekstremistik targ'ibotlarga aralashib qolishi, rivojlanishga hamda, davlatlar, millatlar va dinlar o'rtafiga katta nifoq tushurmoqda.

Yoshlar orasida terrorizm va ekstremizm haqida tushuncha bo'lishi uchun litsey, maktablarda erkin guruhlar tashkil qilish va tadbirlar tashkillashtirish, bu oqimlarda jabrlangan va davlatimiz tomonidan kechirilgan shaxslar chaqirilgan ommaviy tadbirlar o'tkazish maqbul bo'lar edi menimcha. Bu holatlarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan, quloqlari bilan eshitgan yoshlar uchun katta dars bo'lardi. Xalqimizda ajoyib bir maqol bor, Ming marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshiroq.

Shu bilan birga, diniy ta'limning rasmiy doirada olib borilishi muhim. Noqonuniy diniy ta'lim yoshlarning ekstremistik oqimlarga qo'shilish xavfini oshirishi mumkin. Diniy ekstremizm va terrorizm butun dunyo jamiyatlari uchun xavf tug'dirayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. O'zbekiston ushbu tahdidlarga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda faol siyosat olib bormoqda. Yoshlarni ekstremistik oqimlardan himoya qilish uchun ta'lim tizimini isloh qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlariga qarshi chora ko'rish va diniy savodxonlikni oshirish zarur.

Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan qo'llanmalar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prizident matbuot xizmati.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishkar vazirligi rasmiy internet sayti.
3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning manaviy-marifiy asoslari o'quv qo'llanmasidan. (2018-yil)
4. O'zbekiston Respublikasi Prizidenti SH.M.Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” kitobi.